



ДС УМ

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

### O'ZBEKISTON YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

### O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

#### QARORI

**Oliy ta'lif muassasalari talaba-yoshlari o'rtaida  
"Yangi O'zbekiston – yangi dunyoqarash" shiori ostida  
"Ma'rifat maydoni" respublika tanlovini  
tashkil etish va o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi Milliy bog' hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risidagi PQ-2894-sonli qaroriga muvofiq, 2020-yil 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyoboni ochilish marosimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashrifi chog'ida berilgan takliflar ijrosini ta'minlash, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-sonli "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtaida targ'ib qilish va adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish va ta'lif muassasalarida adiblar ijodini o'rganish bo'yicha chora-tadbirlar rejasining 6-band ijrosi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlangan "Yoshlar o'rtaida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi", shuningdek, talaba va o'quvchilaring ezgu maqsadlarga ilhomlantirish, adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish, ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

#### QAROR QILADI:

1. Talabalar-yoshlar o'rtaida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish maqsadida "Ma'rifat maydoni" respublika tanlovi (keying o'rnlarda – Tanlov) o'tkazilsin.

## 2. Quyidagilar:

Tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga,  
tanlovnini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

## 3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

Ma'rifat maydoni respublika tanlovining barcha bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazilishini muvofiqlashtirish;

tanlovda oliy ta'lim muassasalari (*jamoa nomi, a'zolar soni (8 nafargacha) va ta'lim bosqichi hamda pasporti asosida ma'lumoti ko'rsatilgan holda*) ro'yxatini tuzish, tanlovning saralash, hududiy bosqichlari o'tkaziladigan joy va muddatlarini belgilash hamda Nizom talablari asosida o'tkazilishida tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

tanlov bosqichlarini o'tkazish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

tanlovning barcha bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazish, ishtirok etuvchi jamoalarning tanlovga kelib-ketishi, ovqatlanishi hamda turar joy bilan ta'minlash bilan bog'liq moliyaviy masalalar bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;

tanlovning 3-bosqich g'oliblari haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

tanlovning 4-bosqichida ishtirok etgan 5 nafar jamoa g'oliblarini diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlashni tashkil etish;

tanlovning yakuniy bosqichida faol ishtirok etgan va 1, 2, 3-o'rinni qo'lga kiritgan jamoalarni pul mukofotlari bilan taqdirlash vazifalari yuklatilsin.

## 4. O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi:

Tanlovning barcha bosqichlarini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy hamda hududiy ishchi guruhlar, shuningdek hakamlar Hay'ati tarkibiga Markaziy va hududiy tashkilotlardan vakillar ajratish;

tanlovning barcha bosqichlari o'tkazilishi jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish;

tanlovning yakuniy bosqichida ishtirok etgan jamoalarni Yoshlar ishlari agentligining sertifikat va diplomlari bilan taqdirlashni tashkil etsin.

## 5. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi:

Tanlovning barcha bosqichlarini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy hamda hududiy ishchi guruhlar, shuningdek hakamlar Hay'ati tarkibiga vakillar ajratish;

tanlovning barcha bosqichlari o'tkazilishi jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish;

tanlovning yakuniy bosqichida ishtirok etgan jamoalarni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan kitoblar to'plami bilan taqdirlashni tashkil etsin.

6. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi direktori v.v.b I.Suvanov, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshlig‘i M.Masharipov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bo‘lim boshlig‘i A.Boymurodov zimmasiga yuklatilsin.

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri  
o‘rinbosari**

Toshkent sh.,  
2021-yil “21” aprel,  
29-04--son



**Y.Absoatov**

**O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi  
direktori o‘rinbosari**

Toshkent sh.,  
2021-yil “21” aprel,  
09-04-1881-son



**D.Kattaxanova**

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
raisi o‘rinbosari**

Toshkent sh.,  
2021-yil “21” aprel,  
09-32-06-son



**B.Ergashev**



O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi,

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining

2021-yil 21 apreldagi 29/03/18, 08:32-sonli

Qaroriga 1- ilova

## Oliy ta'lif muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan

### "Yangi O'zbekiston – yangi dunyoqarash" shiori ostida

### "Ma'rifat maydoni" respublika tanlovi

### NIZOMI

#### I.Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lif muassasalarida tahlil oluvchi talabalar o'rtasida "Ma'rifat maydoni" respublika tanlovini (keyingi o'rnlarda Tanlov deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

#### II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2. Tanlov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, talaba-yoshlarni ezgu maqsadlarga ilhomlantirish, adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish, ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Shu jumladan, talabalar-yoshlar o'rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

#### III.Tanlovni tashkil etish

3. Tanlovda Respublikadagi barcha oliy ta'lif muassasalarining talabalaridan tashkil topgan jamoalar ishtirok etishlari mumkin.

4. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish mas'ul tashkilotlarning vakillaridan shakllantirilgan Tashkiliy ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.

5. Tanlovda ishtirok etuvchi jamoalar a'zolari (8 nafargacha) tarkibda shakllantiriladi.

#### IV.Tanlovni o'tkazish tartibi

6. Tanlov to'rt bosqichda o'tkaziladi.

7. Tanlovning **1-bosqichi** oliy ta'lif muassasasidagi fakultetlar jamoalari o'rtasida Nizomning 1-ilovasiga muvofiq tashkil etiladi va o'tkaziladi. Mazkur bosqich yakunlari bo'yicha oliy ta'lif muassasasining g'olib bo'lgan jamoasi tanlab olinadi va keyingi bosqichda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

8. Tanlovnинг **2-bosqichi** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Tanlovnинг **3-mintaqaviy bosqichi** Nizomning 3-ilovasiga muvofiq tashkil etiladi.

10. Tanlovnинг **to‘rtinchi** Respublika yakuniy bosqichi bo‘lib o‘tadigan joyi va muddati Respublika Tashkiliy ishchi guruh tomonidan belgilanadi va 10 kun oldin 3-bosqichda g‘olib bo‘lgan oliy ta’lim muassasalariga ma’lum qilinadi.

11. Mintaqaviy saralash bosqichida respublika bo‘ylab 5 ta mintaqa doirasida jamoalar o‘zaro kuch sinashadi.

12. Mintaqaviy bosqichidan muvaffaqiyatli 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, Respublika bosqichiga yo‘l olgan jamoalar o‘z tarkibini 4-ilovaga muvofiq Tashkiliy ishchi guruhiга [ommaviytdbir@edu.uz](mailto:ommaviytdbir@edu.uz), +998914607979 telegram elektron manzillariga yuborishlari shart. Jamoalar tarkibi oliy ta’lim muassasalari rektorlari yoki prorektorlari tomonidan imzolagan hamda muhr bilan tasdiqlangan ko‘rinishda Pdf hamda Word formatida yuborilishi lozim. Fayl nomi hamda xat mavzusiga oliy ta’lim muassasalari nomi ko‘rsatilishi kerak.

13. Hududlarda tanlovnı tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy ishchi guruh tarkibiga hududdagi oliy ta’lim muassasalari, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmalarining hududiy bo‘linmalaridan mas’ul xodimlar kiritiladi.

## **V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari**

14. Tanlov quyidagi 3 ta shart asosida o‘tkaziladi:

**1-shart. “Adib hayoti”** – Adiblar xiyobonida o‘rnatilgan atoqli shoir va adiblarning haykallari siymolari tasvirlangan, ushbu adiblardan 1 nafarini jamoalar o‘zi tanlagan holda hayoti va ijodini chuqur o‘rganish, ularning ibratli umr yo‘llarini mukammal ko‘rsata olish sahna ko‘rinishlari hamda ko‘rgazmali tarzda taqdimot shaklida namoyish etishlari shart.

Ushbu shartga 10 daqiqa vaqt beriladi va 10 ballik tizimda baholanadi.

**2-shart. “Tezkor savol-javob”** – Har bir jamoaga Hakamlar hay’ati tomonidan Adiblar xiyobonida haykallari o‘rnatilgan atoqli shoir va adiblarning hayoti va ijodidan 10 tadan savol o‘ylash va javob berish uchun jamoa har bir ishtirokchisiga 30 soniyadan vaqt ajratiladi. Hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tomonidan tuzilgan savollar majmuasi konvertga solib, muhrlanadi va tanlov jarayonida jamoa sardori tomonidan ochiladi.

Savollarga jamoaning har bir ishtirokchisi navbatil bilan javob beradi. Savollarga to‘g‘ri, aniq va qisqa, ravon nutqda javob bergan hamda ushbu shartda eng ko‘p ballga ega bo‘lgan jamoa g‘olib hisoblanadi.

Ushbu shart 10 ballik tizimda, Hakamlar hay’ati tomonidan kelishilgan holda yagona baho bilan baholanadi.

**3-shart. “Adiblar hayoti va ijodidan teatrlashtirilgan kompozitsiya”** – “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan

kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz" Yurtboshimizning shu so'zlaridan kelib chiqib, qatag'on qurbanlari bo'lgan shahidlar, adiblar, shoirlar hayotining real voqeliklarini xalqimizga yetkazib berishimiz kerak, shoirlar, adiblar hayotidan bir kun, yoki ularning hayotidan ibrat bo'ladigan voqeliklarni teatrlashtirilgan sahna orqali yoshlarimizga yetkazib berish, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shu orqali yanada shakillantirish.

Ushbu shartga 30 daqiqagacha vaqt beriladi.

Quyida keltirib o'tilgan shart sahnada ijro etilgan asarning bugungi kunda dolzarbligi va ijrochilarining mahorat darajasini etiborga olib 10 ballik tizimda baholanadi.

## **VI. Baholash komissiyasi**

15. Tanlovni saviyali o'tkazish maqsadida Tashkiliy ishchi guruh shakllantiriladi.
16. Tashkiliy ishchi guruhga quyidagi vazifalar yuklatiladi:
  - tanlovni sifatli savollar bilan ta'minlash;
  - savollarning maxfiyligini kafolatlash;
  - tanlovni Nizom talablariga asosan odilona baholash;
  - tanlov Nizomiga bo'yusunmagan jamoalarni qoida bo'yicha jazolash huquqiga ega bo'ladi.
17. Tanlovda jamoalarning ballari teng kelib qolgan taqdirda Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha shart beriladi va g'olib jamoa aniqlanadi.

## **VII. G'oliblarni taqdirlash**

18. Tanlovning 1-bosqichida ishtirot etgan barcha jamoalarga oliy ta'lim muassasasining sertifikatlari topshiriladi.
19. Tanlovning 2-bosqichida 1, 2, 3-o'rinni qo'lga kiritgan jamoalarga oliy ta'lim muassasasining diplomi va faol ishtirot etgan jamoalarga faxriy yorliqlari topshiriladi.
20. Tanlovning 3- mintaqaviy bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoa a'zolari diplom, faxriy yorliqlar hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.
21. Respublika yakuniy final bosqichida 1, 2, 3-o'rinni qo'lga kiritgan g'olib bo'lgan jamoalar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlanтирish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:
  - 1 - o'rinn - 12 million so'm,**
  - 2 - o'rinn - 8 million so'm,**
  - 3 - o'rinn - 6 million so'm** pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

## **VIII. Yakuniy qoidalar**

22. Davlat va nodavlat tashkilotlari tanlovda homiylik qilishlari mumkin.
23. Tanlovning Nizom talablari asosida ijrosini nazorat qilish Tashkiliy ishchi guruh zimmasiga yuklatiladi.
24. Mintaqaviy va yakuniy bosqichda Hakamlar hay'ati azolari Respublika Tashkiliy ishchi guruh tamonidan belgilanadi hamda xizmat safari bilan bog'liq surf-xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Ma'rifat maydoni" tanlovini tashkil etish va  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi  
Nizomga 1-ilova

**Oliy ta'lim muassasalarida Ma'rifat maydoni" tanlovining  
1 - (fakultetlararo) bosqichini o'tkazish**

**JADVALI\***

t\rl	OTMlar nomi	O'tkazish sanasi
1	O'zbekiston milliy universiteti	
2	Toshkent davlat texnika universiteti	
3	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	
4	Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti	
5	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	
6	Toshkent arxitektura qurulish instituti	
7	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	
8	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	
9	Toshkent moliya instituti	
10	Toshkent davlat transport universiteti	
11	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	
12	Toshkent davlat pedagogika universiteti	
13	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	
14	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	
15	Toshkent tibbiyot akademiyasi	
16	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	
17	Toshkent farmasevtika instituti	
18	Toshkent davlat stomatologiya instituti	
19	Toshkent davlat agrar universiteti	
20	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti	
21	Milliy rassomlik va dizayn instituti	
22	Toshkent axborot texnologiyalar universiteti	
23	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	
24	Toshkent davlat yuridik universiteti	
25	Toshkent davlat yuridik universiteti Ixtisoslashtirilgan filiali	
26	Ipak yo'li turizm xalqaro universiteti	
27	G. V .Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	
28	Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti	
29	M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali	
30	I .M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti Toshkent filiali	
31	Toshkent shahridagi Singapur Menejmentini rivojlantirish instituti	
32	Turin politeknika universiteti Toshkent filiali	
33	Toshkent shahridagi Inha universiteti	
34	Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmaliq shahar filiali	
35	Toshkent shahridagi Moskva muhandislik-fizika instituti milliy tadqiqot yadro universiteti filiali	
36	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	
37	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	
38	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	

May oyining  
birinchi o'n  
kunligida

May oyining  
birinchi o'n  
kunligida

39	Samarqand davlat universiteti	
40	Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti	
41	Samarqand davlat chet tillar instituti	
42	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	
43	Samarqand veterinariya meditsinasi instituti	
44	Samarqand davlat tibbiyot instituti	
45	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali	
46	Qoraqalpoq davlat universiteti	
47	Nukus davlat pedagogika instituti	
48	Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti	
49	Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali	
50	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali	
51	Andijon davlat tibbiyot instituti	
52	Andijon davlat universiteti	
53	Andijon mashinasozlik instituti	
54	Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti	
55	Buxoro davlat tibbiyot instituti	
56	Buxoro davlat universiteti	
57	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	
58	Guliston davlat universiteti	
59	Jizzax politexnika instituti	
60	Jizzax davlat pedagogika instituti	
61	Qarshi davlat universiteti	
62	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti	
63	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali	
64	Namangan davlat universiteti	
65	Namangan muhandislik-qurilish instituti	
66	Namangan muhandislik-texnologiya instituti	
67	Termiz davlat universiteti	
68	Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali	
69	Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filiali	
70	Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	
71	Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali	
72	Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali	
73	Urganch davlat universiteti	
74	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali	
75	Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali	
76	Farg‘ona davlat universiteti	
77	Farg‘ona politexnika instituti	
78	Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	
79	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali	
80	Navoiy davlat konchilik instituti	
81	Navoiy davlat pedagogika instituti	
82	Qo‘qon davlat pedagogika instituti	
83	Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali	
84	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	

May oyining  
birinchi o‘n  
kunligida

May oyining  
birinchi o‘n  
kunligida

*Izoh: Yuqorida ro‘yxatda nomlari keltirilmagan oliy ta’lim muassasalaridan ushbu festivalda ishtirok etish istagi paydo bo‘lsa, Tashkiliy qo‘mita (tel+998909580503, +998914607979)ni xabardor qilgan holda ta’lim muassasasi joylashgan hududlarda tashkil etiladigan tadbirdarda ishtirok etishi mumkin.*

Oliy ta'lim muassasalarida "Ma'rifat maydoni" tanlovini tashkil etish va  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi  
Nizomga 2-ilova

**Oliy ta'lim muassasalarida "Ma'rifat maydoni" tanloving  
2 - hududiy bosqichini o'tkazish**  
**JADVALI\***

Guruhlar	O'tkazish joyi va mas'ul	O'tkazish muddati	Ishtirok etadigan OTMlar
1-guruh	Andijon davlat tibbiyat instituti	24-may	Andijon viloyatidagi barcha OTMlar
2-guruh	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyat instituti	25-may	Farg'ona viloyatidagi barcha OTMlar
3-guruh	Namangan davlat universiteti	26-may	Namangan viloyatidagi barcha OTMlar
4-guruh	Toshkent davlat pedagogika universiteti	27-may	O'zMU, ToshFarmI, M.Gubkin nomidagi RDNGU Toshkent shahridagi filiali, TDSI, TTESI
5-guruh	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	28-may	TDTrU, TKTI, TDPU, O'zDJTSU, M.V.Lomonosov nomli MDU
6-guruh	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	24-may	TTA, TDIU, TATU, MRDI, JIDU
7-guruh	O'zbekiston davlat konservatoriysi	25-may	TDSHI, TPTI, O'zDJTU, TAQI, TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali
8-guruh	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	26-may	TDYU, TIQXMMI, O'zJOKU, Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent fil.
9-guruh	O'zbekiston davlat konservatoriysi	27-may	TXVU, Toshkent shahridagi Inha, Turin politexnika universiteti, SMRI, TMI
10-guruh	Toshkent moliya instituti	28-may	TDO'TAU, TDTU , TDAU, O'zXIA, Toshkent shahridagi Moskva muhandislik-fizika instituti milliy tadqiqot yadro universiteti filiali,
11-guruh	Termiz davlat universiteti	24-may	Surxondaryo viloyatidagi barcha OTMlar
12-guruh	Qarshi davlat universiteti	25-may	Qashqadaryo viloyatidagi barcha OTMlar
13-guruh	Samarqand davlat universiteti	26-may	Samarqand viloyatidagi barcha OTMlar
14-guruh	Guliston davlat universiteti	27-may	GulDU, JizPI, JDPI, ChirDPI, TDTU Olmaliq fil., MISiSning olmaliq shahridagi fil.
15-guruh	Nukus davlat pedagogika instituti	28-may	Qoraqalpog'iston Respublikasidagi barcha OTMlar
16-guruh	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali	24-may	Xorazm viloyatidagi barcha OTMlar

17-guruh	Buxoro davlat tibbiyot instituti	25-may	Buxoro viloyatidagi barcha OTMlar
18-guruh	Navoiy davlat pedagogika instituti	26-may	Navoiy viloyatidagi barcha OTMlar

Oliy ta’lim muassasalarida “Ma’rifat maydoni” tanlovinining  
o’tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
Nizomga 3-ilova

**Oliy ta’lim muassasalarida “Ma’rifat maydoni” tanlovinining  
3-mintaqaviy bosqichini o’tkazish**  
**JADVALI\***

Hududlar	O’tkazish joyi va mas’ul OTM	O’tkazish muddati	Ishtirok etadigan jamoalar
1- Mintaqaviy bosqich	Toshkent shahri <b>Mas’ul:</b> Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	15-iyun	4, 5, 7, 14-guruqlar g‘olib jamoalari
2- Mintaqaviy bosqich	Toshkent shahri <b>Mas’ul:</b> O‘zbekiston davlat konservatoriysi	16-iyun	6, 8, 9, 10 -guruqlar g‘olib jamoalari
3- Mintaqaviy bosqich	Xorazm viloyati <b>Mas’ul:</b> Urganch davlat universiteti	18-iyun	15, 16, 17, 18-guruqlar g‘olib jamoalari
4- Mintaqaviy bosqich	Qashqadaryo viloyati <b>Mas’ul:</b> Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti	21-iyun	11, 12, 13-guruqlar g‘olib jamoalari
5-Mintaqaviy bosqich	Namangan viloyati <b>Mas’ul:</b> Namangan davlat universiteti	23-iyun	1, 2, 3-guruqlar g‘olib jamoalari

\**Izoh:* 1. Respublika tashkiliy ishchi guruhi tomonidan 2 va 3-ilova jadvallariga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida "Ma'rifat maydoni" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga 4-ilova

**Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan  
"Ma'rifat maydoni" respublika tanlovi  
Yakuniy respublika bosqichi  
Tashkiliy ishchi guruhi  
A R I Z A**

**"Ma'rifat maydoni" tanloviga  
Oliy ta'lim muassasasi nomidan quyidagi  
tarkibdagi jamoa ishtirok etishini ma'lum qilaman:**

Nº	F.I.Sh.	Jamo a'zolari	Fakultet/bosqichi (murabbiy lavozimi va tel.)	Tug'ilgan yili
1.		Jamo a sardori		
2.		Jamo a'zosi		
3.		Jamo a'zosi		
4.		Jamo a'zosi		
5.		Jamo a'zosi		
6.		Jamo a'zosi		
7.		Jamo a'zosi		
8.		Jamo a'zosi		

Oliy ta'lim muassasasi rektori

Imzo

F.I.Sh.

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,  
O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi,  
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining

2021-yil 21 apreldagi 01-07/18, 08-32-06-sonli  
Qaroriga 2-ilova

**Oliy ta’lim muassasalarida “Ma’rifat maydoni” respublika tanlovi  
tashkil etish va o’tkazish bo‘yicha Respublika tashkiliy ishchi guruhi  
TARKIBI**

T/r	Familiyasi va ismi	Ish joyi va lavozimi
1.	Y.Absoatov	O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining o‘rinbosari, Ishchi guruh raisi
2.	O.Bazarov	O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
3.	M.Masharipov	O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarma boshlig‘i, a’zo
4.	A.Boymurodov	O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yosh ijodkorlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, a’zo
5.	I.Suvanov	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi direktori, a’zo
6.	Sh.Raxmonov	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi bo‘lim boshlig‘i, Ishchi guruh kotibi